

## **Ingliz tili darslarida murakkab mavzularni o'qitishda qo'llanadigan zamonaviy usullar**

*Xusanboyeva Muslima Soyibjanovna*

*Namangan viloyati, Yangi Namangan tumani 69-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tili darslarida murakkab mavzularni o'qitishda qo'llanadigan zamonaviy usullar xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** rasmlar bilan solishtirish, tinglash, takrorlash, mashqlar...

Mustaqil Respublika sharoitida xalq ta'limi uziga xos rivojlanish davrini boshidan kechirmoqda. Bu o'ziga xoslik eng avvalo ta'lim-tarbiya mazmunini milliyashtirish, ya'ni uzimizning juda boy o'tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimiz o'z mohiyati bilan juda chiroyli, yuksak insoniy axloqiy mazmunga ega bo'lgan milliy urf-odatlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni o'qitish baxtiga muvaffaq bo'ldik. Bu narsa barcha muallimlar qatori biz o'qituvchilarning ham qalbidamizda yuksak g'urur hislarini shakllantiradi. Mana shu sharoitda hammamiz juda katta ko'tarinkilik bilan jamiyatimizning yosh avlodini yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy g'urur ruhida tarbiyalashimizni talab etadi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondoshishni, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan ham foydalanishimizni taqozo etadi. Eski uslub bilan yangi vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi.

**Tinglab tushunish:** o'qituvchi va suhbatdoshining nutqini, eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish.

**Gapirish:** uchrashuvda o'zini tanishtirish, iltimos bilan murojaat etish, taklif etish va taklifni qabul qilish/rad etish, ma'lumot olish va berish, o'z g'ayrat fikrini qisqacha sharhlash, muhokamalarda ishtirok etish, mavzularni muhokama qilishda o'z

shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish. O'rganilgan mavzu doirasida o'z fikrini bog'lanishli so'zlab berish, berilgan mavzu doirasida taqdimot qila olish.

**O'qish:** mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, qisqa hikoya, shaxsiy va elektron xatlar) o'qish.

**«Yelpig'ich» texnologiyasi.** Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. «Yelpig'ich» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qantashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan. «Yelpig'ich» texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

-boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

-mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;

-yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

**“Vizual” usul.** Ushbu usulni qo'llashda asosiy rol o'qituvchiga yuklanadi. Uning vazifalariga illyustratsiyalar, diagrammalar, jadvallar, tajribalar, tajribalar va turli ko'rgazmali qurollar yordamida materialni tushuntirish kiradi. Ushbu usulda o'quvchilarga olingan ma'lumotlarni idrok etish va qayd etishning passiv roli beriladi.

**Match the words and pictures.**

**School, canteen , staff room, gym, library ,classroom.**

**«Tarozi» texnologiyasi.** Mazkur texnologiya munozarali, murakkab mazmunli mavzularni tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu texnologiya dalillash

qobiliyatini o'rganishda qo'l keladi. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikran rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qiladi, muxoliflarni ishontiradi, munozara madaniyatiga o'rgatadi. «Taroz» texnologiyasi o'quv materialini o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanishi mumkin. Ammo u o'tilgan materiallar bo'yicha xulosa qilish bosqichida yuqori samara va natija beradi, chunki o'qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o'rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi. Bu texnologiya kichik guruhlarda va jamoalar orasida amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.

### **Asosiy tushunchalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:**

Mavzu turli nuqtai nazarlarning to'qnashuviga imkoniyat beruvchi hamda ulardan birortasiga ham imtiyoz bermaydigan tasdiqdir. Mavzu shunday tanlanishi kerakki, u o'rganilayotgan mavzuning barcha qirralarini ochishi, o'quvchilarning axborot qidirish hamda izlanuvchanlik faoliyatlarini rag'batlantirsin.

Argument – bu o'z nuqtai nazarini tasdiqlashga olib keluvchi asosli dalil, g'oya, mulohazadir. Dalillash anik, mantiqiy, asoslangan bo'lishi, faktlar, sharhlar, mulohazalar, isbotlar, misollar, iqtiboslar, manbalarga, obro'li guvohnomalarga havolalar va boshqalar bilan quvvatlangan bo'lishi kerak.

Kontrargument (qarshi dalillash) – bu raqibning dalillarini rad etish bo'lib, u dalillashga qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak. To'g'ri tanlangan kontrargument raqibning nuqtai nazarini zaiflashtirishi hamda o'zining himoya yoki rad etish chizig'ini mustahkamlashi lozim.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o'z shaxsini takomillashtirishga intilish;
- faol hayotiy nuqtai nazarini shakllantirish;
- o'zga fikriga hurmat va toqat qilish;
- jamoada ishlashni eplay olish;

-murosali qarorga kela olish va xushmuomalalik;

-o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish.

Xullas, ingliz tili darslari jarayonida nafaqat ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkorligidan iborat faol usullarni, balki ta'lim oluvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ham ta'minlovchi interfaol usullardan ham foydalanish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Jalolov J “Chet tili o'qitish metodikasi” Toshkent. 1996-yil.
- 2.Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. “Sharq” nashriyot-matbaa AK bosh tahririyati.
- 3.Internet saytlari:-ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz